



XALQ DEPUTATLARI UCHKO‘PRIK TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 29 - aprel

VI-75-78-11-162-K/23

Uchko‘prik tuman hokimligi

Uchko‘prik tumanida 2023-yil I choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi “Byudjet ma‘lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3917-son, 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-son qarori hamda xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 4-fevraldagi “Uchko‘prik tumanida mahalliy byudjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”gi VI-50-20-11-162-K/22-son qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27, 29-bandlari ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Uchko‘prik tumani Kengashi sessiyasi

QAROR QILADI:

1.Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 4-fevraldagi VI-50-20-11-162-K/22-son qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2023-yil I chorak yakunlari bo‘yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Raxmanaliyevning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2.Mazkur qaror bilan quyidagilar:

2023-yil I choragida “Tashabbusli byudjet” jarayoni natijalari bo‘yicha ma‘lumotlar 1 va 2-ilovalarga muvofiq;

2023-yil I choragida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larining

shakllanishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 3-ilovaga muvofiq;

2023-yil I choragida “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Raxmanaliyev), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvatlash bo‘limi (Akbarov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (SHokirov) hamda tumandagi mahalla fuqarolari yig‘inlari bilan birgalikda iyul oyida o‘tkaziladigan “Tashabbusli byudjet” jarayoniga keng jamoatchilikni jalb etish bo‘yicha targ‘ibot tashviqot ishlarini olib borsinlar.

4.Tuman hokimligi matbuot kotibi A.Ermatov va tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Raxmanaliyev) bilan birgalikda tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma‘lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda “Ochiq byudjet” axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

5.Ushbu Kengash qarori sessiya oraliq‘ida chiqqanligini inobatga olgan holda, masala yuzasidan mas‘ullarning hisobot va axborotlarini xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida atroflicha muhokama qilinishi belgilab qo‘yilsin.

6.Mazkur Kengash qarorining ijrosini ta‘minlab borishga mas‘ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Maxsudov va tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Raxmanaliyev belgilansin.

Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi M.Dexqonov zimmasiga yuklansin.

7.Ushbu Kengash qarori rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiritiladi.

**Xalq deputatlari Uchko‘prik
tumani Kengashi Rahbari**



A. Q. Asqarov

Xalq deputatlari Uchkoʻprik
tuman Kengashining
2023 yil 29 apreldagi
VI-75-78-11-162-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari boʻyicha

MA'LUMOT

Uchkoʻprik tumani

01.04.2023-y

T/r	Koʻrsatkich nomi	Summa
		(ming soʻm)
1	Yil boshiga qoldiq	1 857 467,1
2	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasiga oʻtkazilgan mablagʻlar*	6 541 425,0
3	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (gʻolib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilgan mablagʻlar**	10 179 000,0
3.1.	Tadbirlarni amalga oshirayotgan pudratchi tashkilotlarga bajarilgan ishlar uchun toʻlangan mablagʻlar	7 404 233,0
3.2.	Tadbirlarni moliyalashtirishga ajratilgan, biroq pudratchi tashkilotlarga toʻlab berilmagan qoldiq mablagʻlar	2 460 282,7
4	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasidagi qoldiq mablagʻlar	8 398 892,4

Xalq deputatlari Uchkoʻprik
tuman Kengashining
2023 yil 29 apreldagi
VI-75-78-11-162-K/23-son
qaroriga
2-ilova

Tashabbusli byudjetlashtirish natijalari boʻyicha

MA'LUMOT

Uchkoʻprik tumani

**01.04.2023-y
ming soʻm**

T/r	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	koʻrsatkichlar		
			oʻlchov birligi	miqdori	sarflangan mablagʻlar
1	Hududiy ichki yoʻllar	6	umumiy uzunligi	14522	5 170 826
2	Umumtaʼlim maktablarini taʼmirlash va jihozlash	1	soni	1	45 250
3	Maktabgacha taʼlim muassasalarini taʼmirlash va jihozlash		soni		
4	Sogʻliqni saqlash muassasalarini taʼmirlash va jihozlash	1	soni	1	835 436
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini taʼmirlash va jihozlash		soni		
6	Ichimlik suvi taʼminotini yaxshilash		umumiy uzunligi		
7	Koʻcha chiroqlarini oʻrnatish	1	chiroqlar soni	1	785 525
8	Obodonlashtirish va koʻkalamzorlashtirish		tadbirlar soni		
9	Boshqa tadbirlar	1	soni	350	567 196
jami		10	xxxx	xxxx	7 404 233

Xalq deputatlari Uchkoʻprik tuman Kengashining
2023 yil 29 apreldagi
VI-75-78-11-162-K/23-son qaroriga
3-ilova

**Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi mablagʻlarini shakllantirilishi yuzasidan
MA'LUMOT**

Uchkoʻprik tumani

01.04.2023-y

ming soʻm

T/r	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi mablagʻlarini shakllantirish manbalari	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasiga yoʻnaltirilishi lozim boʻlgan mablagʻlar				Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasiga haqiqatda oʻtkazilgan mablagʻlar	Farqi	Izoh
		1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak			
1	Tuman (shahar) byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foiz qismi miqdorida ajratiladigan mablagʻlar	6 264 425,0				6 264 425,0	0,0	
2	Tuman (shahar) byudjetining qoʻshimcha manbalarining 30 foizi miqdorida ajratiladigan mablagʻlar	277 000,0	0,0	0,0	0,0	277 000,0	0,0	
2.1.	erkin qoldiq mablagʻlari	277 000,0				277 000,0	0,0	
2.2.	daromadlarning hisobot choraklari yakunlari boʻyicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi					0,0	0,0	
2.3.	Iqtisod qilinib, jamgʻarmaga qaytarilgan mablagʻ					0,0	0,0	
2.4.	SHu jumladan 2022-yil "Tashabbusli byudjet" jarayonining 2-bosqichidan qoldiq mablagʻ					0,0	0,0	
2.5.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-197-son qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablagʻlar					0,0	0,0	
2.6.	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-409-son qaroriga asosan Respublika byudjetidan ajratilgan mablagʻlar					0,0	0,0	
3	Jami ajratiladigan mablagʻlar	6 541 425,0	0,0	0,0	0,0	6 541 425,0	0,0	

Xalq deputatlari Uchko‘prik tuman Kengashining
2023 yil 29 apreldagi
VI-75-78-11-162-K/23-son qaroriga
4-ilova

Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g‘olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan

MA‘LUMOT

Uchko‘prik tumani

01.04.2023 y
ming so‘m

T/r	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to‘plangan ovozlarning soni	shundan			Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so‘m)						
			onlayn ovozlarning soni	oflayn ovozlarning soni	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan hisobvaraqlar	Tadbirning fuqarolar tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag‘lar	Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘lar	Iqtisod qilinib, jamg‘armaga qaytarilgan mablag‘	Qoldiq mablag‘lar
1	1430400201	3 827	244	0	3 583	Tumandagi 1-sonli IDUMI hududini asfaltlashtirish.	401722860302217092300075001	400 000	300 000	300 000	45 250	12 500	242 250
2	1430600053	13 658	0	0	13658	Sho‘x qishlog‘i ichki yo‘llariga 5500 m x 4 m asfalt yotqizish: Al-Farg‘oniy ko‘chasi uzunlik 2335 metr, kenglik 4 metr; Ibrat ko‘chasi uzunlik 1805 metr, kenglik 4 metr; O‘zbekiston ko‘chasi 1360 metr, kenglik 4 metr.	401722860302217045204118001	1 200 000	1 200 000	1 200 000	1 098 696	54 826	46 478
3	1430600044	13 656	0	0	13656	Mashad MFY ichki yo‘llarini 2,8 km masofada asfaltlash: Archazor ko‘chasi 750 metr, Uch uyli ko‘chasi 250 metr, Uzun ko‘chasi 150 metr, Baland ko‘chasi 350 metr, Guzar ko‘chasi 100 metr, Istiqlol ko‘chasi 500 metr, Tegirmonboshi ko‘chasi 300 metr, Bunyodkor ko‘chasi 400 metr.	401722860302217045204118002	1 200 000	1 200 000	1 200 000	1 022 656	54 826	122 519
4	1430600063	13 198	0	0	13198	Katta Qashqar MFY Yangi hayot ko‘chasiga (53-maktab joylashgan) 1 dona transformator (400), 97 dona simyog‘och va uskunalari, 5 ming metr yopiq kabel hamda ko‘cha yoritgich chiroqlari (quyosh paneli) o‘rnatish.	401722860302217049801280001	977 000	970 000	970 000	785 525	15 999	168 476
5	1430600076	9 436	0	0	9436	Anhor bo‘yi MFY Qirq qishlog‘i Soy bo‘yi ko‘chasining 3500 metr qismini asfaltlash.	401722860302217045204118003	1 200 000	1 200 000	1 200 000	896 080	23 789	280 131
6	1430600004	9 023	0	0	9023	Katta Qashqar MFY ichki ko‘chalarini asfaltlash: Mustaqillik ko‘chasi 1,5 km; Istiqlol ko‘chasi 1,0 km; Do‘stlik ko‘chasi 0,5 km; Buloqboshi ko‘chasi 0,5 km.	401722860302217045204118004	1 200 000	1 200 000	1 200 000	813 545	35 580	350 875
7	1430600015	8 541	0	0	8541	G‘ijdon MFY ichki yo‘llarini 5000 metr qismini asfaltlash.	401722860302217045204118005	1 200 000	1 200 000	1 200 000	1 150 821	35 540	13 639
8	1430600005	6 773	0	0	6773	Soy buyi MFY Kichik Qashqar mahallalari ichki yo‘llarini hamda Qo‘rg‘oncha mahallasi Bino ko‘chalarini 5 km masofada 3 metr kenglikda asfaltlash.	401722860302217045204118006	1 150 000	1 200 000	1 200 000	189 028	41 360	969 612
9	1430600079	3 921	0	0	3921	Tumandagi 60-sonli oilaviy poliklinikasini ta‘mirlash.	401722860302217073101054001	1 000 000	1 000 000	1 000 000	835 436	40 065	124 499
10	1430600006	3 250	0	0	3250	Katta Qorako‘l MFY Qorako‘l qishlog‘i mahallalari va qishloq aylana parametrlari tabiiy gaz tarmog‘iga ulash uchun 3000 metr 89-4 diametrlilik, 2500 metr 100-4 diametrlilik temir truba sotib olish.	401722860302217011204018003	709 000	709 000	709 000	567 196	0	141 804
Jami:								10 236 000	10 179 000	10 179 000	7 404 233	314 484	2 460 283